

## VAZIFAGA ASOSLANGAN TIL O'QITISHDA (TBLT) YONDASHUVI ASOSIDA O'QITISH: QIYINCHILIKLAR VA IMKONIYATLAR

Ishanxodjaeva Feruza Abduboriyevna,  
TDIU "Xorijiy tillarni o'qitish" kafedrasida dotsenti

DOI: <https://doi.org/10.5281/zenodo.18932556>

**Annotatsiya.** Maqolada vazifaga asoslangan til o'qitish (TBLT) yondashuvining nazariy asoslari, amaliy imkoniyatlari va uni joriy etishda uchraydigan muammolar tahlil qilinadi. Vazifaga asoslangan til o'qitish real hayotiy vazifalar orqali til o'rgatishga qaratilgan bo'lib, talabalarning kommunikativ kompetensiyasi, motivatsiyasi hamda amaliy ko'nikmalarini rivojlantiradi. Tadqiqotlar natijasi ushbu yondashuvning og'zaki nutq, tinglab tushunish va hamkorlik ko'nikmalarini oshirishda samarali ekanini ko'rsatadi. Shu bilan birga, katta guruhlar, resurslar yetishmasligi va o'qituvchi tayyorgarligi bilan bog'liq omillar vazifaga asoslangan til o'qitishni samarali qo'llashga ta'sir ko'rsatadi.

**Kalit so'zlar:** vazifaga asoslangan til o'qitish (TBLT), kommunikativ kompetensiya, motivatsiya, til ko'nikmalari, yondashuv, qiyinchilik

**Abstract.** Article discusses the theoretical foundations, practical opportunities and implementation challenges of Task-Based Language Teaching (TBLT). TBLT focuses on teaching language through real-life tasks and aims to develop learners' communicative competence, motivation, and practical language skills. Research findings indicate that this approach is effective in improving speaking, listening, and collaborative skills. However, factors such as large class sizes, limited resources, and insufficient teacher training may hinder its successful implementation

**Keywords:** Task-Based Language Teaching (TBLT), communicative competence, motivation, language skills, approach, difficulties

**Аннотация.** В статье рассматриваются теоретические основы, практические возможности и трудности внедрения подхода обучения на основе задач (TBLT). Данный подход ориентирован на обучение иностранному языку через выполнение реальных коммуникативных задач и направлен на развитие коммуникативной компетенции, мотивации и практических навыков учащихся. Результаты исследований подтверждают эффективность TBLT в развитии устной речи, аудирования и навыков сотрудничества. В то же время большие группы, нехватка ресурсов и недостаточная подготовка преподавателей могут осложнять его применение на практике.

**Ключевые слова:** обучение на основе задач (TBLT), коммуникативная компетенция, мотивация, языковые навыки, гибридная программа, эффективность обучения

**Kirish.** Til o'rgatish jarayoni faqat grammatik qoidalarni yodlash va leksik birliklarni yoddan o'rganish bilan cheklanib qolmaydi. Xorijiy tilni o'rganishdan asosiy maqsad — real hayotiy vaziyatlarda erkin muloqot qilish, fikr almashish va amaliy ko'nikmalarni shakllantirish yoki yanada takomillashtirishdir. Shu nuqtayi nazardan, Vazifaga asoslangan til o'qitish (Task-Based Language Teaching (TBLT)) yondashuvi til o'rgatishda samarali metod sifatida e'tiborni tortadi, chunki u o'rganuvchini vazifa bajarishga yo'naltirib, tilni amaliy kontekstda qo'llashga imkoniyat yaratadi. Vazifaga asoslangan til o'qitish (TBLT) – tilni real hayotdagi vazifalar orqali o'rgatishga qaratilgan, kommunikativ kompetensiyani rivojlantiruvchi zamonaviy yondashuvdir.

Vazifaga asoslangan til o'qitishda (TBLT) til o'rganish jarayoni, vazifani bajarish orqali amalga oshadi. Bu yondashuvda talaba avvalo vazifani tushunib olishi kerak, keyin vazifa bajarish uchun kerakli yordamchi til vositalari tanlanadi va real kommunikativ faoliyatga kirishiladi. Ushbu yondashuvda til o'rganish jarayoni nazariy bilimlardan ko'ra, amaliy faoliyatga qaratilgan bo'lib, talabalarning muammolarni hal qilish va ijodiy fikrlash ko'nikmalarini ham rivojlantiradi. Biroq TBLT har qanday ta'lim sharoitida shunchaki amalga oshmaydi. Vazifaga asoslangan darslarni rejalashtirish, talabalarni faol ishtirokini ta'minlash va baholash jarayonini yangi mezonlar asosida tashkil etish o'qituvchidan yuqori malaka va tajriba talab qiladi. Bundan tashqari, talabalarning til bilish darajasi, motivatsiyasi, guruhdagi hamkorlik muhiti ham TBLT muvaffaqiyatiga ta'sir ko'rsatadi. Shu sababli, TBLT asosida o'qitishning qiyinchiliklari va imkoniyatlarini chuqur o'rganish hozirgi til ta'limida dolzarb ahamiyat kasb etadi.

**Adabiyotlar tahlili.** Vazifaga asoslangan til o'qitish (TBLT) bo'yicha tahlillar va keng qamrovli izlanishlar bu yondashuvning og'zaki nutq, tinglab tushunish, gapirish va umumiy til ko'nikmalarini yaxshilashda sezilarli samaradorligini ko'rsatadi.

Alasal kommunikativ kompetensiyaning uch asosiy komponenti – ravonlik, aniqlik va interaktivlik – topshiriq turi, mashqlar davomiyligi sikli va qayta aloqa mexanizmlari orqali tizimli ravishda rivojlanishini ta'kidlaydi.

Bir qator olimlar Mudinillah, Jekson, Adipat va boshqalarning fikriga ko'ra vazifaga asoslangan til o'qitish (TBLT) yondashuvi talabalarni faol subyektga aylantiradi: ular ma'no yaratish, muammoni hal qilish, hamkorlik qilish va muzokara qilish jarayonida tilni tabiiy ravishda qo'llaydilar. Yana bir qator izlanishlar shuni ko'rsatadiki, vazifaga asoslangan yondashuv, muntazam mashq, qo'llab-quvvatlovchi muhit bilan uyg'unlashtirilganda tinglash va gapirish ko'nikmalari sezilarli oshgani qayd etilgan. Vazifaga asoslangan til o'qitishda (TBLT) talabalarda motivatsiyaning oshishi eng barqaror natijalardan biriekanini ko'rsatadi (Mudinillah et al., 2024; Bagasala & Estremera, 2025).

Vazifaga asoslangan til o'qitish (TBLT) faqat lingvistik ko'nikmalarni emas, balki tanqidiy fikrlash, hamkorlik, muammo yechish, raqamli savodxonlik (texnologiya integratsiyasi orqali) singari transversal kompetensiyalarni ham rivojlantiradi. Adipat va bir qator olimlar global miqyosida o'tkazgan izlanishlarida, vazifaga asoslangan til o'qitishda (TBLT) yondashuvini raqamli texnologiyalar bilan uzviy olib borish ta'limni yanada qiziqarli bo'lishini ta'minlovchi omil ekanini qayd etadilar.

Shunga qaramasdan, vazifaga asoslangan til o'qitish (TBLT) yondashuvi haqida ijobiy qarashlar va natijalar yetarli darajada bo'lsada, lekin real auditoriya muhitida uning to'liq va izchil amalga oshishi cheklangan. Masalan, o'qituvchilarning vazifaga asoslangan til o'qitish (TBLT) yondashuvi haqidagi bilimlari yetarli bo'lsa ham, chuqur nazariy tushunchalar va amaliy tajriba ko'pincha yetishmaydi. (Baralt, 2023; Hamouma, 2025; Hasnain & Halder, 2021).

**Muhokama va natijalar.** Universitetlarda ko‘p sonli xorijiy til o‘qituvchilari ishtirokidagi o‘tkazilgan tadqiqotda, ularning TBLTga nisbatan ijobiy munosabatiga qaramay, katta guruhlarini boshqarish, vazifa asosida baholash va darsga tayyorgarlik jiddiy qiyinchiliklar sifatida tilga olinadi (Hamouma, 2025). Xitoy universitetidagi tadqiqotda esa o‘qituvchi bilan bog‘liq qiyinchiliklar (rol almashish, vazifa fasilitatsiyasi, vaqtni boshqarish) alohida toifa sifatida ajratiladi (Jing et al., 2024).

Katta guruhlarda hammaning vazifada faol ishtirokini ta‘minlash, juftlik va kichik guruh bo‘lib ishlashni samarali tashkil etish, monitoring va baholashni amalga oshirish ancha murakkab jarayonligi ham vazifaga asoslangan til o‘qitish (TBLT) yondashuvida qiyinchilik sifatida ko‘rsatiladi. (Hamouma, 2025; Bao & Du, 2015; Bryfonski & McKay, 2019; Yang, 2025). Ilmiy tahlillarda guruh hajmi TBLT dasturlarining samaradorligini moderatsiya qiluvchi omil sifatida ko‘rsatiladi. (Bryfonski & McKay, 2019). Rui Bao va Du boshlang‘ich darajadagi til guruhlarida ayrim talabalar faol qatnashgani, boshqalar esa chetda qolib ketgani, vazifa shakli va vaqt cheklovlari tufayli ishtirokda muammolar yuzaga kelishini ko‘rsatadi (Bao & Du, 2015). Ko‘pgina tadqiqotlarda past til bilish darajasi, xorijiy tildagi ko‘rsatmalarni tushunishda qiyinchilik, L1ga (ona tiliga) haddan tashqari tayanish, xato qilishdan qo‘rqish va ishonchsizlik TBLTni qo‘llashda to‘siq bo‘lishi qayd etiladi. (Bao & Du, 2015; Hasnain & Halder, 2021; Jing et al., 2024).

Past bilim darajadagi talabalar bilan ham to‘g‘ri qo‘llanganda ijobiy natijalar berishi mumkin, chunki ular mavjud til bilimini vazifada qo‘llab, asta-sekin bilim darajalari va motivatsiyani oshirib boradilar. Uzoq muddatli dasturlar qisqa dasturlarga nisbatan sezilarli ijobiy natija beradi. (Ellis et al., 2019; Bryfonski & McKay, 2019). O‘qituvchining tayyorgarligi, ehtiyojga asoslangan dastur va bir necha siklli (repetitiv) vazifali kurslar TBLT samaradorligini oshiradi. (Jackson, 2022; Ellis et al., 2019; Bryfonski & McKay, 2019). Vazifaga asoslangan til o‘qitish (TBLT) yondashuvi sifatli materiallar, barqaror o‘quv muhiti, vaqt va texnologik infratuzilmani talab qiladi. Ko‘plab EFL kontekstlarida vazifaga asoslangan darsliklar, baholash jarayoni, texnologik resurslar ko‘p holatlarda yetarli darajada emas. (Jackson, 2022; Adipat et al., 2025;).

Ellis TBLTni an‘anaviy yondashuvlar bilan qarama-qarshi qo‘yish emas, balki “gibrid” yoki “modulli” syllabus orqali ularni uyg‘unlashtirishni taklif qiladi: ba‘zi bo‘limlar vazifa markazida, boshqalari esa ehtiyojga qarab yo‘naltirilgan bo‘lishi mumkin (Ellis, 2017; Ellis et al., 2019). Bu TBLT “bir xil hammaga mos” yondashuv emasligi; u doimiy ravishda sharoitga moslashtirilishi kerakligini nazarda tutadi. (Bagasala & Estremera, 2025; Zou, 2025). Onlayn platformalar, video konferensiya aloqalar, raqamli padletlar, loyihalar (webquest) TBLT doirasida vazifalarni boyitishi, auditoriyadan tashqari hamkorlikni kengaytiradi. Biroq, texnologiya o‘zi maqsadni belgilab bermasligi nuqtai nazaridan, yo‘naltirilgan vazifani qo‘llab-quvvatlovchi vosita ekanini unutmaslik lozim.

**Xulosa.** Vazifaga asoslangan til o‘qitish (TBLT) xorijiy tilni o‘qitishda zamonaviy eng istiqbolli, empirik jihatdan dalillangan yondashuvlardan biri bo‘lib, kommunikativ kompetensiya, motivatsiya va talaba faolligini sezilarli darajada oshiradi. Biroq o‘qituvchi tayyorgarligi, imtihon va o‘quv dasturi bosimi, katta hajmdagi guruhlar, resurslar taqchilligi va talabalarning turli darajada til bilish darajasi bu yondashuvning to‘liq amalda qo‘llashga to‘sqinlik qiladi. Shu bois TBLTni muvaffaqiyatli joriy etish uchun uni lokal sharoitga moslashtirish, gibrid syllabuslar yaratish, o‘qituvchilarni tizimli qo‘llab-quvvatlash, real hayotga yaqin vazifalar ishlab chiqish va imtihon tizimi bilan ehtiyotkorlik bilan uyg‘unlashtirish zarur. Shundagina TBLT nafaqat nazariyada, balki amaliyotda, kontekstlarda haqiqiy o‘zgarishlar keltira oladigan amaliy yondashuv darajasiga ko‘tariladi.

#### Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Alasal, M. (2025). Exploring the Role of Task-Based Language Teaching in Enhancing Communicative Competence. *International Journal of Linguistics, Literature and Translation*.
2. Adipat, S., Chotikapanich, R., & Adipat, B. (2025). Navigating Task-Based Language Teaching: A Review of Global Practices and Technology Integration. *Shanlax International Journal of Education*.
3. Bagasala, G., & Estremera, M. L. (2025). A Systematic Literature Review of Task-Based Language Teaching (TBLT) in L2 Context. *International Journal for Multidisciplinary Research*.
4. Bao, R., & Du, X. (2015). Implementation of task-based language teaching in Chinese as a foreign language: benefits and challenges. *Language, Culture and Curriculum*.
5. Bryfonski, L., & McKay, T. H. (2019). TBLT implementation and evaluation: A meta-analysis. *Language Teaching Research*.
6. Ellis, R. (2017). Position paper: Moving task-based language teaching forward. *Language Teaching*.
7. Ellis, R., Skehan, P., Li, S., Shintani, N., & Lambert, C. (2019). *Task-Based Language Teaching*. Cambridge University Press.
8. Hamouma, C. (2025). Implementation of Task-based Language Teaching in EFL Context: Instructors' Perceptions and Challenges. *Journal of Languages and Translation*.
9. Mudinillah, A., Rahmi, S. N., & Taro, N. (2024). Task-Based Language Teaching: A Systematic Review of Research and Applications. *Lingeduca: Journal of Language and Education Studies*, 3(2), 102–115.